

O'ZBEKISTONNING YANGI TARIXINI O'RGANISHNING ILMIY AHAMIYATI

Movlonberdi Ostonaqulov

Guliston davlat universiteti

Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti

Tarix yo'nalishi talabasi

+99899 070 95 85

Annotatsiya: Ushbu ilmiy-pedagogik qarashlar jamlanmasida O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganishning o'quvchi ongi uchun ahamiyati haqida to'xtalib o'tilgan. Shuningdek tarixni fani darsidagi ayrim muammolar yechimida o'qituvchilarning roli haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: yangi tarix, taraqqiyot, yangi tarix, mustaqillik, demokratiya unsurlari, demokratik tizim, o'qituvchi.

O'quvchilarga tarix fanini chuqur o'rgatish yuzasidan ijtimoiy fan o'qituvchilariga rivojlanib borayotgan jamiyatning o'zi qator talablar qo'ygan. Zamonaviy tarix fani o'qituvchisi ta'lim olishga butun umr davom etadigan jarayon sifatida qaraydi. O'quvchilarda tarixiy ong va tarixiy taffakurni shakllantirish, dunyo xalqlari hamda ko'p millatli xalqimizning tarixi va bugungi kuniga, milliy va ummumsoniy qadriyatlariga hurmat hisida tarbiyalash, o'quvchilarga davlatchiligimiz tarixi jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi ekanligini anglatish, o'quvchilarga tayanch va tarix faniga oid umumiy va kuchaytirilgan kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat maqsadni amalga oshirishi lozim.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda tarix fani sobiq mustabid tuzum mafkurasidan voz kechish, yangi yondashuvlar bilan bog'liq o'zgarishlarga yuz tutdi. Fan taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish O'zbekiston tarixchilari zimmasiga jahon amaliyoti yutuqlaridan kelib chiqib, tarix fanini yanada yuqori ilmiy-nazariy darajaga olib chiqish hamda yangi ilmiy yo'nalishlarni o'zlashtirish

kabi vazifalarni yuklamoqda. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov tarixning ma'naviyatda tutgan o'rni haqida yuksak baho bergan: "Ma'naviyatini tiklashi, tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak. Kim bo'lishidan qat'iy nazar, jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamni yo'ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi. Inson uchun tarixidan judo bo'lish - hayotdan judo bo'lish demakdir...- bu g'oyaning zamirida xalqimizning o'zligini anglashi yotadi. Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o'zlikni anglash mumkin emas". Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 30-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori kengash ishidagi kamchiliklarni bartaraf etish va uni yangi pog'onaga ko'tarish hamda bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim hujjatlardan biridir. O'zbekistonning eng yangi tarixini tizimli, haqqoniy va xolis tarzda o'rganishni tashkil etish, yangi avlod ilmiy va o'quv-uslubiy adabiyotlarni yaratish hamda mamlakatimizning dunyodagi o'rni va rolini ko'rsatishga qaratilgan qator vazifalar qo'yilgan. Mazkur hujjatda ko'rsatilgan vazifalarni bir-birini to'ldiruvchi ikki yo'l orqali ro'yobga chiqarish lozim. Birinchi yo'l – yangi avlod ilmiy va o'quv adabiyotlarini yaratish. Ikkinchi yo'l – mavjud bilimlarni yoshlarga targ'ib etish va o'qitish. O'zbekistonning eng yangi tarixi haqida so'z yuritilganda, biz uchun, avvalo, mamlakatimizning 1991-yildan keyin bosib o'tgan tarixiy yo'li mohiyati va mazmunini anglab yetish muhimdir. Bu jarayon qanday borganligini, mamlakatimiz mustaqillik arafasida va uning dastlabki yillarida qanday muammolarga duch kelganini tushunib yetish muhim. O'zbek jamiyatida qadimgi davrlardan beri ayrim demokratiya unsurlari: o'zini o'zi boshqarishning jamoa shakli, mahalla yig'inlari, oqsoqollar kengashlari va xalq diplomatiyasi mavjud edi. Biroq hozirgi kunda ushbu institutlar tomonidan

an‘anaviy funksiyalar bajarilishining o‘zi bilan qanoatlanib bo‘lmaydi. Biz ularning faoliyatini hozirgi davr talablariga mos yangi mazmun bilan to‘ldirishimiz maqsadga muvofiqdir. Rivojlangan demokratik davlatlarda siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyatining eng muhim institutlaridan birini tashkil etadi. Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov fuqarolarning davlat va jamiyatni boshqarishda keng ishtirok etishini ta‘minlovchi siyosiy institutlarning xilma-xilligiga asoslangan yangi demokratik tizim negizlarini shakllantirish zarurligiga alohida e‘tibor qaratgan. Sobiq tuzum davrida davlat va yakkapartiyaviylik tizimi shaxs ustidan yalpi hukmronligini o‘rnatgan edi. Fuqaroning huquqiy himoyalanganligi, boshqaruvning ma‘muriy-buyruqbozlik usullari, har qanday muqobil fikrlashning tazyiq ostiga olinishi ko‘p odamlarda chorasizlik tuyg‘usini uyg‘otib, real hayotdan uzoqlashish istagini oshirdi. “Siyosiy autsayderlar” deb ataluvchi kishilar sonining o‘sishi, jamiyatda ijtimoiy pessimizm va boqimandalikning kuchayishiga sabab bo‘ldi. O‘zbekistonning eng yangi tarixini o‘rganishdagi bosh maqsad jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy isloh qilishdagi o‘zbek modelining konseptual asoslarini idrok etish, davlatimizning global va mintaqaviy integratsiya jarayonlarida ishtiroki bilan bog‘liq masalalarning to‘g‘ri va haqqoniy tahlilini xalqimiz va kelajak avlodga yetkazishdan iborat burchidir. O‘zbekiston tarixini tadqiq etishda tarixchi olimlarining hissasi benihoya katta.

Tarix – hozir va o‘tmish, kecha va bugun, o‘tgan zamon va kelajak haqidagi fan. Uning fan sifatida yaratilishi va o‘qitilishi qadimgi ming yilliklarga borib taqaladi. Qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha rivojlangan va rivojlanayotgan davatlarning barchasidagi maktablarda ta‘lim-tarbiya va yoshlarga zamon ruhida bilim berish dolzarb hisoblangan. Mazkur sharaflı ijtimoiy vazifani amalga oshirish esa o‘zbek tarixchilarining ilmiy va fuqarolik burchidir. Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘z o‘tmishini, ajdodlari tarixini yaxshi bilgan insonning irodasi kuchli bo‘ladi, uni har xil aqidalar girdobiga tushishdan saqlaydi. O‘tmishni bilgan, tarix saboqlarini anglab yetgan inson hozirgi zamoni yaxshi tushunadi,

kelajakni to'g'ri tasavvur etadi. Muxtasar aytganda, O‘zbekiston tarixini o‘rganish o‘quvchilarda xalqning o‘tmishi, hozirgi zamoni va kelajagi yagona tarixiy jarayon degan tushunchani shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. Tarixiy Xotirasiz kelajak yo‘q.
2. **Luiza Iskandariy, Abdulhamid Ismoilov. Turkiston legioni: Tarixning o‘qilmagan varaqlari.**
3. **X.Yo‘ldoshev Ajdodlar haqi – avlodlar burchi.**
4. **Internet saytlari**